

TA'LIM MUASSASALARIDA "KELAJAK SOATI" DARSLARI DOIRASIDA QATAG'ON QURBONLARI HAYOTI VA FAOLIYATIGA DOIR TARG'IBOT SSENARIYSI

1-mavzu: "Toshkentda jadidlar harakati namoyondalarining ma'rifatparvarlik faoliyati va ularning qatag'on qurbonlariga aylanish sabablari"

Dars maqsadi:

Annotatsiya: Ushbu mavzu orqali o'quvchilar XX asr boshlarida Toshkentda yashab ijod qilgan jadid ziyolilarning faoliyati bilan tanishadilar. Jadidlar xalqni ilm, savod va ma'naviy ongga chorlagan, maktablar ochgan, matbuot nashrlarini yaratgan va teatr orqali ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalarni tarqatgan. Ularning maqsadi - xalqning dunyoqarashini kengaytirish, milliy uyg'onishni rag'batlantirish va adolatparvar avlod tarbiyalash edi. Shuningdek, o'quvchilar jadidlar qatag'on qilinish sabablari bilan tanishadi. Bu sabablarga sovet hukumatining mustaqil tafakkurdan va milliy uyg'onishdan qo'rqishi, ularning jamiyatdagi keng ta'siri, milliy g'oyalarini ilgari surishi va Stalin davridagi repressiyalar kiradi. Jadidlarning aksariyati qatag'on qurboniga aylangan bo'lsa-da, ularning ma'naviy merosi bugungi kunda ham yosh avlod uchun ilhom manbai hisoblanadi. Ushbu mavzu o'quvchilarga milliy ong va ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, milliy va ma'rifiy merosni anglash imkonini beradi.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati haqida aniq hamda ilmiy asoslangan holda tushuncha berish.
2. O'quvchilarga jadidlarning ma'rifiy, insonparvarlik g'oyalari hamda ularning xalq savodxonligini oshirish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida bilim berish.
3. O'quvchilarda vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'z tarixiga hamda milliy qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirish.
4. O'quvchilarga jadid bobolarimizning jasorati, xalqparvarligi, zamonaviy dunyoqarashi kabi fazilatlarni ibrat sifatida ko'rsatish.

Asosiy g'oyalar: Jadidchilik harakati - bu o'z xalqini zulmatdan nurga, jaholatdan ma'rifatga olib chiqishga bel bog'lagan fidoyi ziyolilar harakatidir.

Jadidlar harakatining namoyondalari pedagog yoki yozuvchi bo'lib qolmasdan, balki, millatning ko'zini ochgan, uni uyg'otgan, milliy o'zligini anglashga undagan ma'rifatparvarlardandir. Ularning faoliyati orqali xalq orasida savodxonlik kuchaydi, milliy uyg'onish boshlandi. Jadidlar xalqni faqat kuch bilan emas, bilim bilan ozod qilish mumkin deb hisoblaganlar. Bu harakat nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham yosh avlod uchun ibrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- O'quvchilar Toshkentda faoliyat yuritgan jadidchilik namoyondalari faoliyatining mohiyatini anglaydi, uning tarixiy va ma'naviy ahamiyatini tushunadi.
- Jadid bobolarimizning ma'rifiy faoliyati va insonparvarli g'oyalarini fikran tahlil qilgan holda, bu merosdan ibrat olish zarurligini chuqur idrok etadilar.
- O'quvchilarning milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va Vatanparvarlik tushunchalari rivojlanadi.

2. Hissiy va qadriy:

- Jadid ziyolilarning jaholatga qarshi kurashi o'quvchilarda maqsad sari intilish va ongli yashash istagini shakllantiradi.
- Jadid bobolarimizning faoliyati orqali o'quvchilar qalbida axloqiy tarbiya, mas'uliyat, milliy o'zlik va Vatanga xizmat qilish g'oyalari mustahkamlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- O'quvchilar ma'rifat, vatanparvarlik, jasorat kabi qadriyatlarga nisbatan ongli yondasha boshlaydi.
- O'quvchilar jadidchilik harakatining faoliyati, uning yuzaga kelish sabablarini mustaqil tahlil qila oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- O'quvchilar jadid bobolarimiz misolida ijtimoiy adolat, ma'rifat va xalq xizmatida bo'lish g'oyalarini anglaydi hamda jamiyat oldidagi mas'uliyatini tushunadi.
 - Dars davomida olingan tarixiy saboqlar orqali o'quvchi o'z maktabi, oilasi yoki jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilishga intiladi.
 - O'quvchilar o'z xalqining ma'naviy merosi, qadriyatlari, tarixi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Milliy iftihar tuyg'usi mustahkamlanadi.
-

Metapredmet: bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- **Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi:** O'quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi hamda ularni zamonaviy hayot bilan bog'laydi.

- **Fuqarolik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarash shakllanadi:** O'quvchilar jadidlar faoliyatidan ibrat olib, o'z shaxsiy hayotiga ijtimoiy foydali xatti-harakatlarni tadbiq qilishga intiladi.

- **Jamoadi ishlash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi:** Guruhli topshiriqlar, fikr almashish orqali hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

- **Axborotni qidirish va uni baholash:** Ma'lumotlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va tegishli joyda qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi:

1 qism. Motivatsion.

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy.

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriyl materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi. O'quvchilarga Jadidchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati, jadid bobolarimizning ilm-ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar beriladi. Jadid bobolarimizning merosidan bugungi kunda unumli foydalanish haqida ko'nikmalar shakllantiriladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.

KIRISH. Motivatsion qism.

O'qituvchi: "Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bugun biz sizlar bilan juda muhim bir tarixiy mavzuni o'rganamiz. Tarix faqat eski voqealar to'plami emas - u bugungi kunimizning ildizi, ertangi kunimizning yo'lchi yulduzidir. O'ylab ko'ring: bundan yuz yil avval bizning yurtimiz qanchalik og'ir sharoitda yashagan? Savodsizlik, qoloqlik, mustamlaka zulmi, eski fikrlar... Shunday paytda xalqning boshiga nur bo'lib tushgan bir guruh ziyolilar paydo bo'ldi. Ular har bir inson ilmi bo'lsa, xalq uyg'onsa, jamiyat o'zgaradi deb ishonishdi.

Bu insonlar jadidlar edi. Ayniqsa, Toshkent shahri jadidchilik harakatining yuragi, ilm-ma'rifat chirog'i yonib turgan katta markazga aylandi. Bu yerda maktablar, gazeta va jurnallar, teatrlar tashkil qilindi. Ularning har birisi xalqni uyg'otish, ongini o'zgartirish uchun qo'yilgan katta qadam edi.

Ammo, ularning aksariyati keyinchalik totalitar tuzum tomonidan "xalq dushmani" deb e'lon qilindi, tuhmatga uchradi, qatl qilindi, surgun qilindi.

Bugungi darsimizda biz:

- Kim edi bu jasur ma'rifatchilar?
- Toshkentda ular qanday islohotlarni amalga oshirishdi?
- Nega ular qatag'on qurboniga aylanishdi?

Shularni birgalikda o'rganamiz."

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar. Sizlarga bir savol bilan murojaat qilmoqchiman. “Agar ilm-ma‘rifat jamiyat hayotiga keng kirib borsa, mamlakat qay darajada o‘zgaradi deb o‘ylaysiz?”

O‘quvchilar: O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: Ko‘rib turibmizki, sizlar ham ilm va ma‘rifat jamiyatni yuksaltirishini yaxshi tasavvur qilasizlar. Aynan shu fikr bundan bir asr oldin jadid bobolarimiz ongida yonib turgan g‘oya edi. Ular xalq savodli bo‘lsa, mustaqillik sari qadam tashlashini, jamiyat taraqqiy etib adolat qaror topishini bilishar edi. Endi keling, shu ma‘rifat chirog‘ini yoqqan Toshkent shahrida faoliyat yuritgan jadid bobolarimizning kim bo‘lganliklari va ular nima ish qilganliklarini yaqinroq ko‘rib chiqamiz.

Asosiy qism. Toshkentda Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi

O‘qituvchi: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, xususan Toshkent shahri siyosiy va madaniy hayotning asosiy markazlaridan biri bo‘lib, mustamlakachilik siyosati ostida yashar ekan, jamiyatda katta ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuzaga kelib, yangi fikrlar, yangicha dunyoqarash va zamonaviy taraqqiyot g‘oyalari shakllana boshladi. Shu tarixiy sharoitda yangicha tafakkurga ega, islohotparvar ziyolilar - jadidlar safi shakllanib, ular mintaqada modernizatsiya, ma‘rifat va ijtimoiy islohotlar g‘oyalarini ilgari suruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, islohotchi sifatida maydonga chiqib, Toshkentda faoliyat yuritgan jadidchilik harakatining namoyondalaridan kimlarni bilasizlar? Qani menga aytingchi.

O‘quvchilar: O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri javob berdilaringiz. Sizlarning fikrlaringizni davom ettirgan holda shuni aytmoqchimanki, Toshkentdagi jadidlar orasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Shokirjon Rahimiy, Salimxon Tillaxonov, Ismoil Obidiy va boshqa bir qancha ma‘rifatparvarlar muhim o‘rin egalladi.

O‘qituvchi: Qani menga kim ayta oladi. Jadid namoyondalarining asosiy maqsadi nima edi?

O‘quvchilar: O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat edi:

- ta‘limni isloh qilish (usul-i jadid maktablari ochish);
- ilm-fan va dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilish;
- matbuot, darsliklar va adabiyotlar orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoyish;
- ijtimoiy adolat, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash.

O‘qituvchi: Bu kabi ishlarni amalga oshirish uchun Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Shokirjon Rahimiy, Salimxon Tillaxonov, Ismoil Obidiy kabi ma‘rifatparvarlar bir qator ishlarni amalga oshirganlar. Ular haqida birma-bir to‘xtalib o‘tamiz.

Jadid pedagogikasi – milliy va zamonaviy ta‘lim integratsiyasining boshlanishi

O‘qituvchi: XX asr boshlarida Toshkentda bir nechta yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yili Toshkent shahrida ilk usuli savtiya maktabini ochadi. 1907-yilga kelib esa o‘zi “Adibi avval” darsligini tuzadi. O‘zbek tilining deyarli ilk alifbolaridan bo‘lgan bu kitob Saidrasul Aziziyning darsligi bilan oldinma-keyin bosilib chiqdi. U 1907-yilning oxirida ikkinchi darsligi - “Adibus-soniy”ni nashr ettiradi. 1910-1911-yillardan boshlab usuli jadid maktabini ochgan A‘zamxon, Muslimxon (Munavvarqorining akalari), Hasan qori Xoniy, Eshonxo‘ja Xoniy, Nizomiddin Husainov, Rustambek Yusufbekov, Sa‘dulla qori Abdullayev va boshqa ko‘pgina toshkentlik, qo‘qonlik, namanganlik, farg‘onalik domlalar A.Ibodov, A.Shukurov asarlari bilan bir qatorda “Adibus-soniy”ni ham darsda qo‘llay boshladilar. Ko‘pgina maktablarda Munavvarqorining 1-4-sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. U tez orada Turkistondagi barcha maktab o‘qituvchilari tomonidan yaxshi kutib olindi va

amaliyotga tatbiq qilindi. Ko'pgina maktablarda Munavvarqorining 1-4-sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Munavvarqori boshchiligidagi maktablar zamonaviy dars rejasi, yangi o'quv qo'llanmalari, geografiya, matematika, tarix kabi dunyoviy fanlarni o'qitishi bilan ajralib turardi.

Jadid namoyondalaridan Abdulla Avloniy ham ta'lim-tarbiya sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan. U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga alohida e'tibor berdi. Uning "Birinch muallim" ("Muallimi avval", 1909), "Ikkinchi muallim" ("Muallimi soniy", 1912) nomli darsliklari, "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Gulistoni maktab" (1917), "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Shokirjon Rahimiy mehnat faoliyatini maktabda muallimlikdan boshlangan. Toshkentning Taxtapul mahallasida otasi ochgan "Rahimiya" maktabida 1909-1919-yillarda muallimlik qilgan. O'quvchilarga o'qish va yozishni o'rgatar ekan, Shokirjon Rahimiy maktabdagi ta'lim jarayoni mohiyati haqida: "Maktab bolalarni faqatgina o'qitib qolmay, ularning ma'naviy dunyosini va jismoniy quvvatini rivojlantirishi, dunyoqarashini milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar ruhida shakllantirishi, o'z Vatanini yurakdan sevgan faol fuqarolarni tarbiyalab yetishtirishi zarur", deb yozadi. Jadid namoyandalari bilan doimo aloqada bo'lib maktablar uchun 1912-yilda o'zining dastlabki darsligini yaratgan.

Bolaning milliy ongini uyg'otish va uni milliy an'analar ruhida tarbiyalashni birinchi sinfdan boshlab amalga oshirish zarur deb hisoblagan Shokirjon Rahimiyning "Sovg'a"lar takomil qiladir" maqolasida shunday yozadi: "Bolalarning ongida milliy ruh alifbo orqali singdirilishi kerak". O'sha davr bolalarining tayyorgarligi va tasavvurlarini hisobga olgan holda u qishloq va shahar bolalariga alohida alohida "Sovg'a" (1919), "Alifbo darsligi" (1922) kabi alifbo darsliklarini yaratdi. Shuningdek, kattalar uchun "Kattalarga o'qish" (1920),

katta yoshdagi kishilar uchun 1924-yilda “Markaz savodsizlikni bitiruv favqulodda komissiyasi” tomonidan 15 ming dona bosilgan “Kattalar yo‘ldoshi” nomli alifbosini tuzadi. “Kattalar yo‘ldoshi” ikki yil ichida tuzatilib, to‘rt marotaba nashrdan chiqadi. Bundan tashqari, “Kattalar alifbosi”(1927), “Savod” (1930), “O‘zbek tili. Ish kitobi” (1932), “O‘zbek tili darsligi, “Grammatika ham imlo” (1934), “O‘zbek maorifi” (1923) kabi maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ham yaratadi. ”Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil 28-avgust sonidagi yangi asarlar nomli sahifasida Rahimiyning “Jonli tovushlar” nomli yana bir yangi alifbo kitobi nashrdan chiqqanligi haqida e‘lon qilinadi. Uning bu kitoblari imlodan imloga o‘tish yillarida keng xalq ommasiga xizmat qilgan.

Turkiston jadidlarining yirik nomoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonovning ilk shogirdlaridan biri, o‘lka ma‘rifatparvarlik harakatining yosh va jonkuyar namoyondalaridan bo‘lgan Salimxon Tillaxonov ham ma‘rifatparlik g‘oyalariga katta hissasini qo‘shgan. Munavvarqori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabida 1914–1917-yillarda muallimlik faoliyatini olib boradi. Bokuda tahsil oladi. Salimxon Tillaxonov 1918–1920-yillari Toshkent eski shahar maorif bo‘limi komissari, Turkiston millatlar komissarligi xodimi vazifalarida ish olib boradi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar. Yuqoridagi ma‘rifatparvar jadid bobolarimizning faoliyati bilan qay darajada tanishganligingizni aniqlash maqsadida quyidagi jadvalni to‘ldiramiz. E‘tiboringizni quyidagi jadvalga qaratishingizni so‘rayman.

TO‘G‘RI JAVOBNI TOPAMIZ

T/r	Jadid ma‘rifatparvari	Amalga oshirgan faoliyati	To‘g‘ri javob
1	Shokirjon Rahimiy	a) Salimxon Tillaxonov	d
2	Munavvarqori Abdurashidxonovning ilk shogirdlaridan biri edi	b) Salimxon Tillaxonov	
3	Munavvarqori Abdurashidxonov-yili Toshkent shahrida ilk usuli savtiya maktabini ochadi.	s)Abdulla Avloniy	

4	bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi.	d) "Rahimiya" maktabida 1909-1919-yillarda muallimlik qilgan.	
5	U "Maktab bolalarni faqatgina o'qitib qolmay, ularning ma'naviy dunyosini va jismoniy quvvatini rivojlantirishi, dunyoqarashini milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar ruhida shakllantirishi, o'z Vatanini yurakdan sevgan faol fuqarolarni tarbiyalab yetishtirishi zarur", deb yozadi.	e)Abdulla Avloniy	
6	U "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini yozgan	f)Shokirjon Rahimiy	
7	Munavvarqori Abdurashidxonovning "Namuna" maktabida 1914-1917-yillarda muallimlik faoliyatini olib boradi.	g)1901-yili	

To'g'ri javoblar: 1-d, 2-a, 3-g, 4-s, 5-f, 6-e, 7-b.

Jadid matbuoti va uning ma'rifiy uyg'onishdagi roli

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar, darsimizni davom ettirar ekanmiz, sizlarga quyidagi savolni bermoqchiman: hozirgi zamonda dunyoda yuz berayotgan yangilik va voqealar haqida odatda qaysi axborot manbalari orqali xabardor bo'lasizlar?

O'quvchilar: Javob berishadi (Ijtimoiy tarmoqlar, tv, radio va h.k.)

O'qituvchi: Barakalla aziz o'quvchilar. Jadid ma'rifatparvarlari ham xalqni ma'rifatga chaqirishning, dunyodagi bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor etishning hamda millatni uyg'otishning eng ta'sirli vositasi - bu matbuot, ya'ni gazeta va jurnallar deb dildilar. Shuning uchun ham jadidlar o'z fikr-mulohazalarini keng ommaga yetkazish uchun gazeta va jurnallar tashkil etdilar.

Jadidlar tomonidan ilk chiqarilgan gazeta bu "Taraqqiy" gazetasi bo'lib, ushbu gazeta 1906-yil 27-iyundan Toshkentda Ismoil Obidiy muharrirligida chop etila boshlangan va Turkistondagi ilk milliy nashr hisoblanadi. "Taraqqiy" gazetasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi ko'plab

jadid ziyolilarning asarlari chop etilgan. Bundan tashqari, Munavvarqori Abdurashidxonov “Xurshid”, Abdulla Avloniy “Shuhrat”, Ahmadjon Bektemirov “Osiyo” gazetalarini tashkil etib, yo‘lga qo‘yishadi.

Teatr – jamiyat madaniyatining ko‘zgusi

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi darsimizda sizlar bilan xalqimiz ma‘naviy uyg‘onishida alohida o‘rin tutgan bir muhim masala - jadidlarning teatr orqali ma‘rifat tarqatish faoliyati haqida ham gaplashamiz. Ular yaxshi anglab yetgan ediki, sahna - bu odamlar qalbiga bevosita ta‘sir etadigan kuchli vosita. Shu sababli ular yangi g‘oyalarni, jamiyatdagi muammolarni, ilm-ma‘rifatning ahamiyatini spektakllar orqali ommaga ko‘rsatdilar.

1914-yilda Toshkentda jadid ziyolilar tashabbusi bilan “Turon” teatr truppasi tashkil qilinadi.

Jadid ziyolilari tashabbusi bilan 1914-yilda tashkil etilgan “Turon” teatrida sahna asarlarini yaratish ishida ishtirok etgan. Truppaning badiiy va g‘oyaviy rahbari - Abdulla Avloniy bo‘lib, truppa ilk spektaklini 1914-yil 27-fevralida Toshkentda Behbudiyning “Padarkush” pyesasini bilan namoyish qilgan. Truppa a‘zolari orasida Nizomiddin Xo‘jayev, Badriddin Alamov, Shokirjon Rahimiy, Muhammadjon Poshshaxo‘jayev va boshqa jadidlar bo‘lgan. Mashhur aktyor va dramaturg Mannon Uyg‘ur ham 1916-yilda “Turon” truppasida ijodiy faoliyat boshlagan. “Turon” teatri sahnalashtirgan pyesalar orasida “Padarkush” (Behbudiyn), “Baxtsiz kuyov” (Abdulla Qodiri), “Advokatlik osonmi?” (Avloniy) va boshqa sahna asarlari o‘sha davr odamlarini o‘ylantirgan, bilim olishga, yangicha fikrlashga chorlagan. Jadidlar tuzgan teatr jamoalari ko‘plab shaharlarda chiqishlar qilib, xalqning dunyoqarashi va madaniy ongini o‘zgartirishga katta hissa qo‘shgan.

Sovet tuzumining jadidlarni tahdid sifatida ko‘rishi va qatag‘on qilinishining asosiy sabablari

O'qituvchi: Jadidlar o'z faoliyati bilan nafaqat xalqni ilmga va savodga chaqirdi, balki milliy uyg'onish va mustaqil tafakkur yo'lini ham ilgari surdi. Bu esa sovet hokimiyati uchun bevosita tahdid sifatida qabul qilindi.

1. Mustaqil tafakkur va siyosiy ong

- Jadidlar faqat bilim berish bilan cheklanmagan, balki odamlarning dunyoqarashi, milliy o'zlikni anglash va jamiyatdagi adolatsizlikka nisbatan tanqidiy fikr yuritishga chaqirgan.

- Ularning maktablari, gazetalari va teatr truppalari orqali o'quvchilar va tomoshabinlar mustaqil fikrlashga, masalalarni tahlil qilishga o'rgatilgan.

- Sovet hokimiyati esa erkin tafakkur va milliy uyg'onishni totalitar nazorat ostida ushlab bo'lmaydigan xavf deb hisoblagan.

2. Milliy g'oyalar va uyg'onish harakati

- Jadidlar milliy tilni, madaniyatni, tarixiy merosni saqlashga intildi, milliy uyg'onishni targ'ib qildi.

- Bu g'oyalar sovet ideologiyasining markazlashgan, yagona sotsialistik jamiyat yaratish maqsadlariga zid edi.

- Jadidlarning faoliyati, xususan Toshkentdagi teatr va matbuot orqali keng xalq qatlamiga ta'sir qilishi, sovet hukumatining nazoratini qiyinlashtirgan.

3. Ijtimoiy va siyosiy faoliyatning keng tarqalishi

- Jadidlar o'z g'oyalari orqali ko'plab odamlarni harakatga chaqirgan, ularni milliy ong va ma'naviy uyg'onishga undagan.

- Bu sovet rejimi uchun xavf tug'dirgan: xalq orasida ularning obro'si ortgan, yangi avlod mustaqil tafakkur va milliy qadriyatlarni qadrlashga o'rgangan.

- Natijada sovet hokimiyati ularni "xalq dushmani", "millatchi" yoki "kontrevolyutsion" deb baholashga asos topdi.

Jadidlar erkin tafakkur va milliy uyg'onish yo'lini ilgari surgani uchun sovet tuzumi ularni tahdid sifatida ko'rdi. Ularning milliy g'oyalari, mustaqil fikri va ijtimoiy faoliyati sovet mafkurasiga zid bo'lgani sababli ko'pchiligi qatag'on qurboniga aylantirildi.

Yakunlovchi qism

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, sizlarga savola bilan murojaat qilmoqchiman.

1. Jadidlar XIX–XX asrlarda xalqni ilmi qilishga intilishdi. Sizningcha, agar bugungi kunda har bir inson ilmi bo'lsa, jamiyatimiz qanday o'zgarishi mumkin? Misol keltirib tushuntiring.

2. Jadidlar gazeta va jurnallar orqali xalqni uyg'otishgan. Nega ular matbuotni shunchalik samarali vosita deb bilishgan?

3. Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy o'z maktablarida yangi usuldagi darsliklar va fanlarni joriy qilganliklariga asosiy sabab nima edi?

4. Jadidlar ilm va milliy uyg'onish bilan shug'ullanishgan. Nega bu sovet hukumatining nazarida tahdid sifatida ko'rildi?

O'quvchilar: O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: O'quvchilarning javobini tinglagan holda ularni umumlashtirib yakuniy fikrni bildirib o'tadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugun biz bilan birga Toshkent shahrida faoliyat yuritgan jadid ma'rifatparvarlari, ularning ilm, ma'rifat va jamiyatni taraqqiyotga yo'naltirishdagi fidoyiliklarini o'rgandik. Munavvarqori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiy, Salimxon Tillaxonov, Ismoil Obidiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jasur insonlar xalqqa ilm, ma'rifat va mustaqil tafakkur nurini sochganlar. Afsuski, ular amalga oshirgan ulkan ishlariga qaramay, totalitar tuzum tomonidan asossiz ravishda tuhmat qilinib, qatl qilindi yoki surgun qilindi.

Aziz o'quvchilar, bugungi darsimizda Toshkentdagi jadidlar harakati namoyondalarining ma'rifatparvarlik faoliyati va ularning qatag'on qurbonlariga aylanish sabablari haqida batafsil gaplashdik. Sizlar ularning maktablar ochgani, matbuot nashrlarini yaratgani, teatr orqali xalq ongini yuksaltirganini o'rgandingiz. Shu bilan birga, ularning erkin fikrlashlari va milliy uyg'onishga xizmat qilgani tufayli sovet hokimiyati tomonidan qatag'on qilinishiga sabab bo'lganini ham bilib oldingiz. Ushbu bilimlar orqali sizlar nafaqat tarixiy voqealarni tushunasiz, balki ularni zamonaviy hayot bilan bog'lab, mustaqil baho bera olasiz. Endi esa,

darsimizni videorolikni tomosha qilib, jadidlarning faoliyati va ular yaratgan ma'rifiy merosni yanada yaxshi tushunishimiz bilan yakunlaymiz.

<https://www.youtube.com/watch?v=FH6Q5AFIh74>

Etiboringiz uchun rahmat!